

TEMPERAMENTNING HAR XIL TURLARIGA EGA SUBYEKTLARNING NUTQ HARAKATLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH USULLARI

Surayyo Qodirova

Surxondaryo VPYMO‘MM

“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
qodirova.1982@mail.ru

Abstract

In this article, language is one of the means of emotional and intellectual influence for a person, speech is one of the most complex forms of higher mental functions, our feelings (emotional experiences) in oral speech are expressed in images, tone, rhyme, exclamations and questions., manifested in the pauses during the conversation, especially in the intonations, discussed the fact that dialogical speech is the first form of speech, scientific psychological foundations of temperament and psycholinguistic research, communicative activity.

Key words: means of emotional and intellectual influence, dialogic speech, temperament, psycholinguistics, emotion, speech.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada til odam uchun hissiy va intelektual ta’sir vositalaridan biri bo‘lib, nutq oliv psixik funksiyalarning eng murakkab shakllaridan ekanligi, og‘zaki nutqda hissiyotlarimiz (emotsional kechinmalarimiz) so‘z yordami bilan qilingan tasvirlarda, ohangda, qofiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pauzalarda, ayniqsa, intonatsiyalarda namoyon bo‘lib, dialogik nutq ilk yuzaga kelgan nutq shakli ekanligi, temperamentning ilmiy psixologik asoslari va psixolingvik tadqiqi, kommunikativ faoliyat borasida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: hissiy va intelektual ta’sir vositasi, dialogik nutq, temperament, psixolingvika, hissiyot, nutq.

Til orqali har bir kishi o‘zi hech qachon duch kelmagan notanish hodisa, holat, vaziyat, sharoitlar haqida bilim olishga erishadi. Shu boisdan til odam uchun hissiy va intelektual ta’sir hamda taassurotlar to‘g‘risida o‘ziga o‘zi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til vositasida boshqa odamlarga o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqelik haqida axborot, xabar, ma’lumot berishi, ularga ijtimoiy tajriba asosida ko‘nikma hamda malakalarni o‘tkazishi, uzatishi mumkin. Ma’lumki, hayvonlar o‘zlarining individual tajribalarini o‘z turkumidagi boshqa namoyondalarga o‘tkazishga yoki berishga, shuningdek, o‘zlashtirish qobiliyatiga ham ega emas,

chunki mavjudotlar tug‘ma irsiy belgi, instinct va shartsiz reflekslarga asoslanadi, xolos. Demak, inson hayvonot olamidan farqli o‘laroq o‘zi xoh amaliy, xoh aqliy harakat bo‘lishdan qat’i nazar uni rejalashtira oladi. Faoliyatni bunday rejalashtirish yechimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli – til. Tilning o‘zi nutqsiz yuzaga chiqolmaydi, ular bir-birini taqozo etadigan ijtimoiy hodisa. Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, lekin ayni vaqtida ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi; ular birlikda mavjuddir. Psixologik nuqtai-nazaridan nutq-odamlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishining alohida usulidir. Inson o‘z nutqi orqali o‘zining bilimlari, fikrlari, hislari va istaklarini boshqa kishilarga aytib bera oladi, boshqa kishilarning fikrlarini o‘zlashtirib oladi, boshqa kishilarning hislari va istaklarini bilib oladi.

Nutq tarixiy taraqqiyot jarayonida, ong bilan baravar, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog‘lash, bir-birlariga biron narsa aytish ehtiyoji tug‘ilishi natijasida paydo bo‘lgan. Tarixan kishi nutqi mehnat jarayonida o‘sib borgan. Bugun biz nutq shakllanishini to‘la ma’noda mehnat jarayoni taqozo etgan deya olamiz. Nutq oliy psixik funksiyalarning eng murakkab shakllaridan biri sanaladi. Nutqiy faoliyat ko‘p ma’nolilik, ko‘p darajali struktura, harakatchanlik va boshqa psixik funksiyalar bilan aloqadorligi bilan tavsiflanadi. Nutqiy faoliyatning amalga oshishi qator murakkab psixologik mexanizmlar bilan ta’minlangan bo‘ladi.

Nutqni anglash nutqiy faoliyatning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Bu mexanizm nutqning mazmun (birinchi navbatda) hamda tuzilish tomonini fikrlash analizini ta’minlaydi. Nutqni anglash mexanizmi miya katta yarim shari qobig‘ining analitik-sintetik faoliyati vositasida – barcha asosiy aqliy harakatlar va amallarning ta’siri (qiyoslash, taqqoslash, to‘ldirish, tasniflash, analiz va sintez) orqali amalga oshiriladi. Anglash uchun birinchi navbatda nutq predmeti (nutqiy faoliyatda borliqdagi fragment, hodisa, voqealarni aks ettiradigan) lozim bo‘ladi. Mazkur mexanizm asosida nutq kommunikatsiyasining motivi va maqsadi to‘liq ravishda tushuniladi. Nutqiy faoliyat va uning natijalarini nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, bu mexanizmning ishtirokisiz nutqiy faoliyatni rejalashtirish va dasturlashni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Nutqni xotirada tutish, shuningdek, nutqiy xotira mexanizmining ahamiyati ham nutqni anglash mexanizminikidan qolishmaydi. U nutq jarayonining barcha tomonlarini, xususan, nutqning “mazmun jihat” va uning lisoniy ifodasini ta’minlaydi. Nutqda uning predmetining aks etishi, ya’ni borliqdagi u yoki bu hodisani – inson xotirasidagi bilimlari va atrofni o‘rab olgan dunyo haqidagi tasavvurlarining faollashuviziz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, uning ongda mavjud bo‘lgan til belgilari haqidagi obrazlar tasavvuri va ularni nutqiy muloqot jarayonida qo’llash qoidalaring faollashuviziz ham bo‘lishi mumkin emas. Og‘zaki nutqda hissiyotlarimiz (emotsional kechinmalarimiz) so‘z yordami bilan qilingan tasvirlarda,

ohangda, qofiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pauzalarda va, ayniqsa, intonatsiyalarda namoyon bo‘ladi. Chunonchi, biz biron kishining ismini ataganimizda, shu kishiga bo‘lgan turli hislarimizni va munosabatlarimizni o‘zimizdagi mehrni, g‘azabni, g‘ururni, muhabbatni, hurmatni, nafratni, mensimaslikni va boshqa shu kabilarni atayin yoki beixiyor namoyon qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, gapiruvchining intonatsiyasida uning holati ham, charchaganligi, umuman hayajoni, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yoki ishonchsizligi va shu kabilar ham ifodalanadi.

Lirik she‘rlar, ashulalar, romanlar, ariyalar singari nutq shakllarida insonlarning, asosan, xilma-xil his-tuyg‘ulari ifodalanadi. Bundan tashqari nutq – ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ta’sir ko‘rsatish – biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo‘lsak, shu kishida biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug‘dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o‘zimiz xohlaganimizcha o‘ylashga majbur etish, ularni ishontirish demakdir. Agitator o‘z nutqi bilan odamlarda muayyan siyosiy kayfiyat, qarashlar, muayyan yo‘lda harakat qilish istagini tug‘dirishga intiladi. O‘qituvchi va tarbiyachi so‘z orqali ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan o‘quvchilarda muayyan intizom va xatti-harakat vujudga keltiradi. Ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lgan nutq ta’lim-tarbiyaning asosiy qurolidir. Bunda, albatta, intonatsiya ham katta rol o‘ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar va iroda xususiyatlari – norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘quvchilarda tabiat va turmushdagi biror hodisaga qiziqish paydo qilish, bilimni yanada mustahkamroq bilib olishga ishtiyoq uyg‘otish uchun, shuningdek, ularni ma’lum bir harakatga yo‘llash uchun o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatmoqchi bo‘lganida o‘qituvchi o‘z nutqida talaffuzga, ayniqsa, alohida e’tibor bermog‘i lozim. Biz gapirayotganimizda, odatda, mimika va imo-ishoralardan foydalanamiz. Lekin mimika va imo-ishoralarni alohida til deb hisoblab bo‘lmaydi. Ular nutqning emotsiyal (hissiyot) tomonlarini ifodalab beradigan ixtiyorsiz harakatlardan iborat bo‘ladi, yoki gapiruvchi odam o‘z nutqining ayrim joylarini uqtirmoq, bo‘rttirib ko‘rsatmoq uchun atayin ixtiyoriy ravishda qiladigan harakatlaridan iborat bo‘ladi.

Nutqiy faoliyatning ko‘rinishlari

Nutqiy faoliyat so‘zlash, eshitish, yozish va o‘qish vositasida amalga oshiriladi. Mazkur vositalar kishilarning o‘zaro munosabat turlari sifatida verbal muloqot jarayonida yuzaga chiqadi. Nutqiy faoliyatning barcha turlari umumiyl jihatlarga ega bo‘lish bilan birga, bir qator mezonlarga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. I.A.Zimnayaning fikricha, bunday o‘lchovlarning asosiylariga: a) verbal (nutqiy) muloqotning xarakteri; b) verbal muloqotda nutqiy faoliyatning roli; d) xabarni qabul qilish va uzatishda nutqiy faoliyatning biror maqsadga qaratilganligi; e) fikrni shakllantirish usuli bilan aloqasi; f) tashqi ifodalashning xarakteri; g) nutqiy faoliyatning qarama-qarshi aloqadorlik jarayonidagi o‘zaro ta’sir xarakteri kabilar kiradi. Nutqiy faoliyat

turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qayd qilingan mezonlardan kelib chiqqan holda quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Nutqiy faoliyat nutqiy muloqotning o‘ziga xosligiga ko‘ra og‘zaki muloqot va yozma muloqot vositasida amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyatning birlamchi turlariga so‘zlash va eshitish kiradi. Nutqiy faoliyatning mazkur turlari ontogenezda insonni boshqalar bilan muloqot qilish usullari sifatida birinchi shakllanadi. Nutqiy faoliyatning bu turlariga nisbatan insonda “tug‘ma tayyorgarlik” mavjud bo‘ladi. Birinchidan, ushbu “tug‘ma tayyorgarlik” insonda psixik intellektual faoliyatni amalga oshirishga mo‘ljallangan maxsus apparat – bosh miya qobig‘i katta yarim sharlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Insonni nutqiy faoliyatni egallash imkoniyati bilan ta’minlovchi miyaning ustki qobig‘ining qismlari tug‘ilishgacha ma’lum darajada (taxminan uchdan ikki) shakllangan bo‘ladi. U bola hayotining dastlabki yilida faol rivojlanadi va nutqiy faoliyatning “nutqgacha bo‘lgan davri”, deb nomlanadi.

Ikkinchidan, “tug‘ma tayyorgarlik” ko‘pincha inson organizmining muayyan anatomik qismlari, xususan, nutq apparatining periferik(sirtqi) tuzilishi bilan belgilanadi. Bolaning tug‘ilish vaqtida nutqning mazkur anatomik-fiziologik apparati ma’lum darajada shakllangan bo‘ladi. Bolaning “nutqgacha bo‘lgan davri”da uning “psixofiziologik tayyorgarligi” yuz beradi.

Nutqiy faoliyatning ikkilamchi turlariga o‘qish va yozish kiradi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari eshitish va so‘zlash asosida shakllanadi. Kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi bo‘lgan o‘qish va yozish nutqiy faoliyatning murakkab turlari hisoblanadi. Pedagogik amaliyotning ko‘rsatishicha, bola nutqiy faoliyatning mazkur turlarini egallashi uchun aniq bir maqsadga qaratilgan maxsus ta’lim kerak bo‘ladi.


Muloqot jarayonida bajarayotgan roliga ko‘ra nutqiy faoliyat reaktiv va initsial turlarga bo‘linadi. So‘zlashish va yozish nutqiy muloqotning initsial jarayoni bo‘lib, ular eshitish va o‘qishni qo‘zg‘atuvchi omil hisoblanadi. O‘z navbatida, bunga javoban eshitish va o‘qish nutqiy muloqotning reaktiv jarayonini ifodalab, so‘zlashish va yozish jarayoni uchun zaruriy shartlardan sanaladi. Yozma nutq hech qanday qo‘srimcha vositalarga, ya’ni jest, mimikalarga ega bo‘lmasada, o‘zida grammatik to‘liqlikni aks ettiradi va bu to‘liqlik uning tushunarligini ta’minlaydi. Yozma nutq adresatdan nutq predmetini (joriy vaziyatni) bilishni talab qilmaydi. Yoki “simpratik” (bir vaqtida sodir bo‘lish) bo‘lgan “uzatuvchi” va “adresat” kontaktini ko‘zda tutmaydi yoki paralingvistik til vositalari – jest, mimika, ohang kabi semantik vositalarni og‘zaki monologik nutqdagi kabi nazarda tutmaydi. Bundan tashqari nutq yana bir qancha: diologik, monologik va poliologik turlarga bo‘linadi. Dialogik nutq ilk yuzaga kelgan nutq shakli. U o‘zida ijtimoiylikni aks ettiradi va jonli muloqotni bevosita tashkil etuvchisi hisoblanadi. Dialog nutq shakli sifatida replikalardan tashkil topadi (alohida jumla). U ketma-ketlikdagi nutqiy reaksiyalar zanjirini hosil qiladi. U navbatma-navbat

murojaat qilish, savol-javob, ikki yoki undan ortiq kishining suhbatidan iborat bo`lishi mumkin. Dialog nutqiy muloqat shakli sifatida suhbatdoshlarning dunyoni qabul qilishini, nutqiy muloqot holatini nutq predmeti haqidagi bilimlarni aks ettiradi. Dialogda og`zaki nutqdan tashqari til vositalari noverbal vositalar katta rol o`ynaydi. Bular - jest,mimika,ohang vositalari. Sanab o`tilgan vositalar dialog jumlalari xususiyatlarini aks ettiradi.

Monologik nutq psixologiya va psixolingvistikada bir kishining real voqelikka yoki biror faktga qaratilgan kommunikativ maqsadini ifodalaydi. Polilogik nutq yoki guruh nutqi o`zida monologik va diologik nutq komponentlarini birlashtirgan murakkab nutq ko`rinishi. Polilog (ko`p ovozli) ommoviy kommunikatsiya shaklining jamoaviy ko`rinishini aks ettiradi. U turli xil ommaviy va madaniy-ommaviy marosimlarda faol qo`llaniladi. Turli ko`rinishdagi “teleshou”larni polologning yorqin misoli sifatida keltirishimiz mumkin. Polilog o`zida yoyiq va murakkablashgan dialogni aks ettiradi. Uning ishtirokchilari bir yoki ikki kishi emas ko`p kishidan iborat. O`z mazmuniga ko`ra, (xususan borliqdagi predmetning nutqda aks ettirish bilan) va kommunikativ yo`nalishi bilan polilog monolog bilan keng ko`lamda aloqa qiladi. Farqli xususiyati shundaki, bunda nutqiy yechim kommunikatsiya ishtirokchilari bo`lgan kishilar tomonidan topiladi. (uni “mikrosotsium” deb atash mumkin). Polilog strukturasi, dialog kabi ikki yoki undan ortiq kishilar nutqidan iborat bo`ladi. Demak, nutq va uning turlari lingvistik ham psixologik nuqtai nazaridan to`la tasnif etilgan. Endilikda uning ichki mohiyati: nutqda psixik holatning aks etishi, insonning emotsional holati nutqda qay darajada namoyon bo`lishi masalalari keyingi dolzarb muammoni o`rtaga qo`yadi. Nutq shakllanishi haqidagi nazariyada til va tafakkur munosabati o`ta dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Nutq shakllanish jarayonining tafakkur bilan aloqasi psixolingvistikada “nutq yaratilishi modeli” deb nomlanuvchi sxemalarda aks ettirildi. Bunday modellarning deyarli barchasida L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan “Fikrdan-ma’noga, ma’nodan- so‘zga” degan konsepsiya o`z aksini topdi. Y.S.Kubryakova quyidagi o`rinli savolni o`rtaga tashlaydi: odam avval o`ylab keyin gapiradimi yoki bu ikki faoliyat bir vaqtning o`zida amalga oshadimi? Olimaning fikricha, ayrim holatlarda odam o`z nutqini o`ylab, keyin tuzadi (masalan, maqola yozganda). Ayrim hollarda esa fikrlash va so`zlash jarayoni ayni bir vaqtning o`zida amal qiladi (masalan, suhbat chog`ida). Zamonaviy psixologiya nutqni universal muloqot vositasi, nutqiy ifodani hosil qiladigan va uni qabul qiladigan ikki subyekt ishtirok etadigan ongi faoliyatning murakkab shakli sifatida talqin qiladi. Psixolingvistikani tilning “subyektiv” jihatni, uning aniq nutqiy ifodaning shakllanishidagi roli qiziqtiradi. Nutqiy faoliyatga berilgan ta’riflardan ko`rinadiki, u ba’zan turg‘un hodisa sifatida (masalan, matn), ba’zan esa harakatdagi hodisa sifatida (masalan, so`zlash va eshitish)

talqin qilinadi. Nutqiy faoliyatga berilgan mazkur ilmiy ta’riflar bir-biridan turli jihatlariga ko‘ra farq qilsa-da, ularning barchasida ikki omil, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi faoliyati nazarda tutilganligini ko‘rish mumkin.

Nutqiy muloqotning holati



Hissiyot borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsnı subyektiv kechinmalarining aks ettirilishidir. Hissiyot -yaqqol voqelikning ehtiyojlar subyekti bo‘lmish shaxs miyasida obyektlarga nisbatan uning uchun qadrli, ahamiyatli bo‘lgan munosabatlarining aks ettirilishidir. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib tashlil qilinganda "hissiyot" odatda tirik mavjudodlar miyasida, ya’ni shaxslarning eshtiyorlarini qondiruvchi va unga mone’lik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks ettirish ma’nosida qo‘llaniladi. Jahon psixologiyasida "hissiyot" bilan "emotsiya" terminlari (ayniqsa, chet mamlakatlarda) bir xil ma’noda ishlataladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Shu boisdan ularning o‘zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi. Demak, shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador (xoh foydali, xoh zararli bo‘lishdan qat’i nazar) omillar, qo‘zg‘ovchilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinctlar, shartsiz reflekslar, irsiy belgilari (ovqatlanish, jinsiy, himoyalananish, qo‘rqish va boshqalar) bilan bog‘liq sodda hissiy holatlar "emotsiya" deyiladi. Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli rivojlangan mavjudodlarga ham taalluqli ruhiy (psixik) holatlardir. Hayvonlardagi emotsiyalar o‘zgarishi murakkab bo‘lgan tabiiylik (irsiy) alomatlarga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Shuni aytib o‘tish joizki, hissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyekti sanalmish hazrati insongagina xos, xolos. Demak, hissiyot bilan emotsiya (uning yuksak darajalari nazarda tutiladi) inson shaxsining ijtimoiy hayotiy shart-sharoitlarida yuzaga kelgan, odamning ijtimoiy

tarixiy taraqqiyotida shakllangan (evolyusion yo'sinda), muayyan ijtimoiy muhitda (jamiyatda) istiqomat qiluvchi kishilar tomonidan o'zlashtirilgan g'oyalar, me'yorlar, qonun-qoidalar, nizomlar, qadriyatlarni aks ettiruvchi anglanilgan his-tuyg'ular, murakkab ichki kechinmalarni vujudga kelish jarayonidir. Nutqni psixolingvistik tadqiq qilishda Voronej ilmiy-metodik fonetika markazi (Voronej Davlat universiteti) ish yuritmoqda. Ushbu markazda rus va nemis tilidagi ekspressiv vositalar bazasi, emotsiyal baza tavsifi ustida ish yuritilmoxda. Tajriba materiali sifatida badiiy matn television og'zaki nutq, badiiy film, bolalar nutqidan foydalanilmoqda.

Ohang doimo talaffuzning tavsifi sifatida qaralgan, biroq perspektiv yondashuv akustik nuqtai nazardan o'zgacha talqin qildi. Keyin uni modellari yaratildi. Ular sintaktik konstruksiyalarga tadbiq qilindi, intonatsiyaga mustqil birlik sifatida qaray boshlandi. Intonatsiyani funksional bo'lganda, ritmni alohida ta'kidlash zarur. Nutqni qabul qilish va shakllantirishda ritmik birliklar ahamiyatga ega. Og'zaki nutqning ritmik funksiyasi turli tipdagi matn materiallarida uchraydi. Nutqdagi keskinlik to'g'ridan to'g'ri amalga oshmaydi, bu juda murakkab jarayon. Ohang va tembrik belgilar emotsiya bazasi va uning shakllanishiga javobgar. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liqdir. Misol uchun, inson o'zi temperamentning qaysi tipiga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar, o'z faoliyatiga layoqatli, mayli kuchli, intilishi qat'iy, qiziquvchan bo'lsa, uni tashkillashtirishda va nazardan qolishda uyushqoqlik, harakat sur'ati esa tezkor amalga oshadi, unga loqayd munosabatni bildirsa, ish sur'ati sekin va sust kechadi.

Inson xarakteri olimlar tomonidan to'rt asosda tahlil qilingan. Bu temperament tushunchasida mujassamlashadi. "Temperament" lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460-356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha, chole), qon (lotincha, sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha, melas "qora", chole "o't"), balqam (yunoncha, "pxlegma") kabilardan iboratdir.

Uning mulohazasicha;

- 1) o'tning xususiyatni-quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quriq tutishdir;
- 2) qonning xususiyati- issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;
- 3) qora o'tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi-badan namligini saqlab turishdir;
- 4) balqamning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi-badanni sovutib turishdan iboratdir. Gippokrat ta'limotiga muvofiq, har bir insonda shu

to‘rt xil suyuqlik mavjud bo‘lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha, temperamentum) lardan qaysi biri salmoqliroq bo‘lsa, unga qarab insonlar temperament jishatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sariq o‘t, sangvinikda qon, melanxolikda qora o‘t, flegmatikda balqam (shilimshiq modda) ustun bo‘lishi ta’kidlanadi. Gippokratning to‘rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya’ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma’noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo’llanilib kelinmoqda. Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida yaratiladi hamda bu borada ishlanilishlar davom ettirilmoqda. Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

<p>Sangvinik-juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi; yolg‘on dalilarga jahli chiqadi. Atrofdagi narsalar, ma’ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo-ishoralarni ko‘p ishlataladi, chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo‘lishga qaramay, kuchsiz ta’sir (qo‘zqatuvchilar) ni sezsa olmaydi, serg‘ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munobati muvozanatida, imtizomli o‘zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti-harakati jo‘sqin, nutq sur’ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki tirak, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o‘zgaruvchan. Ko‘nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko‘ngli ochiq, dilkash, muloqatga tez kirishadi. Xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada</p>	<p>Xolerik-sust senzitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va reaktiv. Ko‘pincha reaktivligi faollikdan ustun keladi. Betoqat, serzarda, tinimsiz.</p> <p>Sangvinikka qaraganda silaroq, lekin ko‘proq qotib qolgan(rigidroq). Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat’iylik mavjud. Biroq diqqatni bir joyga to‘plashda qiynaladi. Nutq sur’ati tez va hokazo.</p>
<p>Melanxolik- sentizivligi yuksak. Tortinchoq, g‘ayratsiz. Arazchan, xafaxon. Jimginga yig‘laydi, kam kuladi. Qat’iyligi va mustaqilligi zaif. Tez toladi. Ortiqcha ishchan emas. Diqqati barqaror. His-tuyg‘usi sust o‘zgaradi. qotib qolgan (rigid).</p> <p>Shaxs xarakterining yaxlitligi bus-butunligi mutloq narsa emas, albatta, chunki insonning asosiy munosabatlaridan biri boshqa barcha munosabatlarni to‘la belgilay olgandagina xarakter mutloq xususiyat kasb etadi. Lekin shaxsning munosabatlari ijtimoiy munosabatlarining aks ettirilishidan iboratligi tufayli uning munosabatlari bilan xarakter xislatlari o‘rtasida ziddiyat shukm suradi. Bundan xulosaga kelgan holda shaxsning xarakteri nisbiy jihatdan yaxlidir deyishimiz mumkin</p>	<p>Flegmatik-sentizivligi sust, his-tuyg‘usi (emotsiyasi) kam o‘zgaruvchan, shunga ko‘ra bunday shaxsnii kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko‘ngilsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo‘ladi. Vazmin, kamharakat. Imo-ishorasini, mimikasi ko‘zga yaqqol tashlanmaydi. Lekin serg‘ayrat, ishchan, faol, chidamlari, matonatli. Nutq va harakat sur’ati sust. Farosati qiyiqroq. Diqqatni to‘plashi osoyishta. Interavertiravonlashgan, kam gap, ichimdan top. Yangilikni qabul qilishi murakkab. Tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beradi (qaytaradi).</p>

Nutqning psixolingvitik jihatini tadqiq etishda psixolingvistik diagnostika muhim ahamiyatga ega. Psixolingvistik diagnostika - psixopotologik simptomatika xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nutqiy ifodalarning o‘ziga xos jihatlari va ko‘rinishini o‘rganishdir. Til grammatikasida ta’kidlar uyushuvining ikki darajai tilning yuzaki va chuqr grammatik tuzilmalari farqlanadi. Umumlashgan chuqr sintaksik tuzilmalar ko‘p bo‘lmagan qoidalardan iborat bo‘lib barcha tillar uchun

universal ko‘rinishga ega qonuniyatlarga bo‘ysunadi.

Nutq xatti-harakati bilan temperamentning dinamik tarkibiy qismlarini baholab, S.L. Rubinshteyn u shunday deb yozgan edi: “Temperament ayniqsa kuchda, shuningdek, odam psixomotorining tezligi, ritmi va tempi - uning amaliy harakatlarida, nutqida, ifodalari harakatlarida namoyon bo‘ladi. Odamning yurishi, uning mimikalari va pantomimalari, harakatlari, tez yoki sekin, silliq yoki shiddatli, ba’zan kutilmagan burilish yoki boshning harakati, uzoq davom etadigan letargiya yoki sekin silliqlik, asabiy shoshqaloqlik yoki nutqning kuchli shiddatliligi bizga ba’zi narsalarni ochib beradi” (S.L.Rubinshteyn, 1946).

V.M. Rusalov temperament xususiyatlarini nutqiy xulq-atvor orqali aniqlashni ham taklif qiladi va buning uchun u bilvosita usul - nutq xatti-harakatlarini kuzatish usulini qo‘llashni taklif qiladi. Shu bilan birga, u "bu usul juda ko‘rsatkichli va faqat nutq xatti-harakatlarida eng aniq ifodalangan temperament xususiyatlarini tuzatishga imkon beradi" (V.M. Rusalov, 1997) deb tan oladi. -jadvalda o‘lchash mumkin bo‘lgan nutq signali parametrlari keltirilgan.

Jadval 2

Past va yuqorida nutq xatti-harakati elementlari temperament ko‘rsatkichlarining qiymatlari

Quyi ko‘rsatkichlar	Yuqori ko‘rsatkichlar
Muloqotdagi munosabat	
Qisqacha javob berishni afzal ko‘radi, savol bermaydi, suhbatga qiyinchilik bilan qo‘shiladi, sukut saqlaydi, nutq sokin, monoton, qayg‘uli intonatsiyalar..	Ko‘pincha sherigiga murojaat qiladi, suhbatga osongina qo‘shiladi, quvonchli intonatsiyalar, baland ovozli nutq, uzoq bayonotlar.
Kommunikativ tezlik	
Ko‘p pauza qiladi, nutq uzilib qoladi, ovoz jim bo‘ladi.	Mayin va yengil so‘zlash, tez so‘zlash, baland ovoz, gap oxirlarini yutadi.
Moslashuvchan muloqot	
Subyekt javob berishdan oldin uzoq vaqt o‘ylaydi, suhbatga qiyinchilik bilan qo‘shiladi, neoplazmalar yo‘q.	Tezkor og‘zaki javoblar, suhbatga kirishimli, impulsiv, ko‘plab shakllanishlar va grammatik buzilishlar.
Hissiy muloqot	
Ovoz tinch, ishonchli, quvnoq va tartibli hissiy komponentlar ustunlik qiladi.	Keskin ohang (baland yoki past), salbiy hissiy tarkibiy qismlarning ko‘pligi.

E.V. Belovol (2000) individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari va nutqning akustik xususiyatlari, xususan, asosiy ohangning chastotasi o'rtasidagi munosabatni o'rgangan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, E.V. Belovol subyektiv idrok nuqtai nazaridan temperament turiga qarab nutq xatti-harakatlarining xususiyatlarini sifat jihatidan tasvirlab berdi. Unga ko'ra:

Sangvinik	Xolerik	Flegmatik	Melanxolik
Tez va aniq gapiradi. Uning nutqi muvozanatlari, barqaror, ishonchli. Intonatsiyalar silliq	Nutqning o'rtacha tezligi bilan ajralib turadi. Nutqda kesimlar va boshqa "qo'shimcha" so'zlar mavjud: yaxshi, va ..., bu erda. Nutq hissiy jihatdan rangga ega. Nutq beqaror va notejis.	Sekin, xotirjam, shoshqaloq, hatto nutq bilan ajralib turadi. Hissiyotlar aniq ifodalanmaydi. Bu ibora tugaganidan sekinroq boshlanadi. U ishonch bilan gapiradi.	Beqaror, notejis nutq bilan tavsiflanadi. Nutq hissiy komponentlarni o'z ichiga oladi. U noaniq gapiradi. Nutq sekin. Intonatsiya keskin

N.I. Krasnogorskiy (1958) refleks harakatlari, umumiylar xulq-atvori va nutq reaksiyalarini har tomonlama o'rganish asosida nerv sistemasining tiplarini temperament turlarini quyidagicha ta'riflaydi;

Sangvinik	Xolerik	Flegmatik	Melanxolik
baland ovozli, tezkor, to'g'ri intonatsiya va stress bilan ifodalangan nutqni, u jonli imo-ishoralar, ekspressiv mimika va hissiy yuksalish bilan birga keladi	oldingi turlarga qaraganda shakllanishi qiyinroq bo'lgan tez, ammo notejis nutq	bir oz sekin, sanguin odamga nisbatan, nutqi, xotirjam, bir tekis, aniq histuyg'ular, imo-ishoralar va yuz ifodalarisiz	sokin nutq

Temperament (psixomotor, intellektual va kommunikativ sohalar) xususiyatlarining nutq harakatlarida namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan adabiyotlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosalashimiz mumkin.

- temperament faolligi nutq parametrlarida namoyon bo'ladi: o'qilayotgan matn muallifining nomi va ismini aytish, o'qishning emotsiyaligini, pauzalar, fonetik va grammatik xatolar, murojaatlar, suhbatdosh va baholovchi iboralar;

- intellektual faoliyat sohasida temperament faolligi quyidagi nutq parametrlarida namoyon bo'ladi: bayonot hajmi, topshiriqni bajarishdan bosh tortish, hikoyaning sarlavhasining mavjudligi, o'tilgan mavzular soni, hajmi. kishilarning tavsifi, lug'aviy o'zgaruvchanlik, takrorlar, astenik modallik iboralarining mavjudligi, iboralarning yiqilishi, bayonotdagi "men" - iboralar va "u" - iboralar soni, sabab-oqibat munosabatlari soni. va savollar;

- kommunikativ faoliyat sohasida temperamentning faolligi nutq parametrlarida namoyon bo'ladi: nutqning hajmi, pauzalar soni, qo'ng'iroqlar soni, tugallanmagan iboralar soni (koagulyatsiya), o'z ichiga olgan iboralar soni. ritorik vositalar, stenik va astenik modallikkagi hissiy rangdagi iboralar soni, leksik va sintaktik o'zgaruvchanlik, taqqoslashlar soni, "men" - iboralar va "u" - iboralarning qo'llanilishi, harakatlarning tavsiflari soni, o'tilgan mavzular soni va topshiriqni bajarishdan bosh tortish. Inson temperamenti integral individuallikning avtonom quyi tizimining alohida holatidir. Agar uning tuzilishi ma'lum darajada o'r ganilgan bo'lsa, unda temperament va faollikning, shu jumladan nutq faoliyatining o'zaro ta'siri muammosi dastlabki rivojlanish bosqichida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Белянин В.П. Психолингвистика. – М., 2003.
2. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. Москва, 1969.
3. Зимняя И.А. Функциональная психологическая схема формирования и формулирования мысли посредством языка // Исследование речевого мышления в психолингвистике. – М., 1985
4. Сеченов И.М. Избранные философские и психологические произведения., Госполитиздат, 1947, 148 с.
5. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. Изд. 2-е. – М., 1946.
6. Глухов В., Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. М.: Изд-во: ACT , 2007. – 148,216 с.
7. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. –М., 1986. –С. 25.
8. G'oziyev. E.Umumiyl psixologiya.-T., "Universitet" – 2002.